
TOSHLOQ TUMANIDA HOKIM YORDAMCHILARI UCHUN SEMINAR TASHKIL ETILDI

Seminarda hokim yordamchilari (KPI) ko'rsatkichlarini yaxshilash, hududlardagi mavjud bo'sh bino, inshootlar, yerlarni onlayn auksion savdolariga chiqarish va uzoq muddatga yer ajratish tartiblari tushuntirildi.

Ishtirokchilar shu kuni ko'rsatgichi (KPI) yuqori bo'lgan Hamrak MFY hokim yordamchisi Nodirbek Djo'raboyev hamda Varzak mahallasi hokim yordamchisi Abdug'ani Sulaymonov faoliyati bilan tanishishdi. Hamrak mahallasi parrandachilik, Varzak mahallasi esa hunarmandchilikni kigizchilik yo'nalishiga ixtisoslashgan bo'lib, "Bir mahalla, bir mahsulot" tamoyili asosida ushbu mahallalar misolida aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

O'zaro fikr va tajriba almashishgan ishtirokchilar yangi reja va loyihalarni belgilab oldi. Seminarda boshqarma xodimlari va Elektron-auksion savdolarni tashkil etish markazi vakillari ishtirok etdi.

2023-01-28 10:02:06